

CHIRCHIQ-OHANGARON HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQLIMIY OMILLAR.

Qurolov Doston Ilxomiddin o'g'li

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi maxsusfan o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada daryolar oqimining hosil bo'lismiga iqlimi omillarning, ya'ni atmosfera yog'lnlari va havo haroratining ta'siri o'rjanildi. Shu maqsadda asosiy e'tibor daryolar oqimining hosil bo'lismiga aynan ana shu gidrometeorologik omillarning ta'sirini statistik baholashga qaratildi. Bunda daryolar suv sarflari bilan atmosfera yog'lnlari hamda havo harorati orasidagi bog'lanishlar o'rjanildi. Bobning so'nggi bo'limida daryolar oqimining hosil bo'lismiga iqlimi omillarning qo'shgan nisbiy hissalari baholandi

Kalit so'zlar: daryo, atmosfera yog'lnlari gidrologik post, daryo oqimi, suv sarfi, o'zgaruvchanlik koeffitsienti, hidrologik postlarida

Kirish: Daryo oqimining atmosfera yog'lnlari bilan bog'liqligi masalalari Chirchiq-Ohangaron havzasidagi 10 ta tabiiy hidrologik rejimga ega bo'lgan daryolarda kuzatilgan suv sarflari hamada Piskom meteostansiyasida o'lchangan atmosfera yog'lnlari miqdorlari haqidagi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqildi. Ma'lumki, daryoda bir yil suv ko'p bo'lsa, ikkinchi yili unga nisbatan kamroq bo'ladi ya'ni daryo oqimi yillararo o'zgarib turadi. Bu tebranishlar iqlimi omillarga bog'liq bo'lib, aniq bir qonuniyatga bo'y sunmaydi, lekin oqimning ma'lum bir o'rtacha miqdori atrofida tebranib turadi. Tebranish amplitudasi turli daryolarda turlicha qiyomatlaraga ega bo'ladi.

Hisoblashlar G.A.Alekseev tomonidan taklif qilingan obyektiv tenglashtirish va normallashtirish usulida bajarildi. Aniqroq qilib aytganda, quyidagi uch hidrometeorologik o'zgaruvchilar orasidagi ko'p hadli bog'lanishlar shu usulni qo'llash asosida statistik baholandi.

- 1) o'rganilayotgan daryolarning o'rtacha yillik suv sarflari (Q_y , m^3/s);
- 2) Piskom meteostansiyasida oktyabr-mart oylarida o'lchangan qishki yog'lnlar ($X_q = \sum X_{x-III}$, mm);
- 3) shu meteostansiyada aprel-sentyabr oylarida qayd etilgan yog'lnlar ($X_{yo} = \sum X_{IV-IX}$, mm).

Ushbu uchta hidrometeorologik o'zgaruvchilar orasidagi $Q_y = f(X_q, X_{yo})$ ko'rinishidagi ko'p hadli bog'lanishlar zichligi hisoblandi. Hisoblashlar,

yuqorida qayd etilganidek, obyektiv tenglashtirish va normallashtish, ya'ni G.A.Alekseev usulida, quyidagi ketma-ketlikda bajarildi:

- 1. Gidrometeorologik o'zgaruvchilarning miqdoriy qiymatlari o'sib borish tartibida joylashtirildi;
- 2. O'zgaruvchilarning rang raqamlari (m) aniqlandi;
- 3. O'zgaruvchilarning normallshtirilgan qiymatlari ($U_1(Q)$) ularning rang raqamlari asosida, maxsus jadvaldan aniqlandi;
- 4.O'zgaruvchilarning normallashtirilgan qiymatlarining ko'paytmalari hisoblandi; $U_0(Q) \bullet U_1(X_q); U_0(Q) \bullet U_2(X_{yo}); U_1(X_q) \bullet U_2(X_{yo})$;
- 5. Ko'paytmalarning algebraik yig'indilari aniqlandi; $\Sigma U_0(Q) \bullet U_1(X_q)$;
- 6. Ular, ya'ni ko'paytmalarning yig'indilari asosida kovariatsiya koeffitsiyentlari quyidagi ifodalar yordamida hisoblandi:

$$\mu_{01} = \frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N U_0(Qy) \bullet U_1(Xq) ; \quad \mu_{02} = \frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N U_0(Qy) \bullet U_2(X_{yo}) ;$$

$$\mu_{12} = \frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N U_1(Xq) \bullet U_2(X_{yo}) .$$

Emperik dispersiya quyidagi tenglik bilan aniqlandi:

$$\sigma_u^2(N) = \frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^1 U_{ji}(N) .$$

Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari quyidagi ifodalar yordamida hisoblandi:

$$r_{01} = \frac{\mu_{01}}{\sigma_u^2(N)} ; \quad r_{02} = \frac{\mu_{02}}{\sigma_u^2(N)} ; \quad r_{12} = \frac{\mu_{12}}{\sigma_u^2(N)} .$$

O'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlarni ifodalaydigan juft va to'liq korrelyatsiya koeffitsientlari

Izoh: $r_0 \pm \sigma_{r_0}$ -to'liq korrelyatsiya koeffitsyenti va uning xatoligi.

| T/R | Daryo-post | Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari | | | $r_0 \pm \sigma_{r_0}$ |
|-----|----------------------|--------------------------------------|----------|----------|------------------------|
| | | r_{01} | r_{02} | r_{12} | |
| 1 | Chotqol-Hudoydotsov | 0,719 | 0,408 | 0,168 | $0,775 \pm 0,076$ |
| 2 | Pikom-Mullala | 0,725 | 0,425 | 0,168 | $0,797 \pm 0,070$ |
| 3 | Maydонтол-quyilish | 0,340 | 0,307 | 0,168 | $0,539 \pm 0,136$ |
| 4 | Ugom-Xo'jakent | 0,697 | 0,580 | 0,168 | $0,857 \pm 0,051$ |
| 5 | Chimgansoy | 0,337 | 0,496 | 0,168 | $0,504 \pm 0,143$ |
| 6 | Ohangaron-Yertosh | 0,470 | 0,593 | 0,168 | $0,721 \pm 0,092$ |
| 7 | Qizilcha-Yertosh | 0,844 | 0,311 | 0,168 | $0,878 \pm 0,044$ |
| 8 | Nishboshsay-Nishbosh | 0,621 | 0,244 | 0,168 | $0,711 \pm 0,095$ |
| 9 | Dukantsay-Dukant | 0,448 | 0,337 | 0,168 | $0,887 \pm 0,013$ |
| 10 | Qorabausoy-Samarchuk | 0,723 | 0,328 | 0,168 | $0,758 \pm 0,081$ |


Jadvaldan ko'rinish turibdiki, r_{12} ning qiymatlari barcha daryolar uchun bir xil bo'lib, 0,168 ga teng. Chunki, barcha o'rganilayotgan daryolar uchun bajarilgan hisoblashlarda hisob davrlari ham, meteostantsiya ham bir xil bo'lgan.

O'zgaruvchilar orasidagi ko'p hadli bog'lanishlar zichligini ifodalaydigan to'liq korrelyatsiya koeffitsientlari $0,504 \pm 0,143 \div 0,887 \pm 0,013$ oraliqlarda o'zgaradi. Ushbu erishilgan natijalar, kelajakda, magistrlik dissertatsiya ishida o'rganilgan daryolar yillik oqimini qishki va yozgi yog'inlar haqidagi ma'lumotlar asosida hisoblash va prognozlash usullarini ishlab chiqishga zamin bo'lib xizmat qiladi.


Chirchiq-Ohangaron havzasi daryolari oqimiga ta'sir etuvchi iqlimi omillardan biri hisoblangan havo harorati bilan suv sarflari orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz. Bunda asosiy e'tibor Chirchiq-Ohangaron havzasi daryolarida o'lchangan suv sarflari bilan Piskom meteorologik stantsiyasida qayd etilgan havo haroratlari orasidagi bog'lanishlarni o'rganishga qaratildi.

Bog'lanishlarni o'rganishda 1990-2020 yillar oralig'idagi Chirchiq-Ohangaron havzasi daryolarida o'lchangan suv sarflarining o'rtacha yillik qiymatlari va Piskom meteorologik stantsiyasida qayd etilgan yozgi davrdagi va o'rtacha yillik havo haroratlari ma'lumotlaridan foydalandik. To'plangan gidrometeorologik ma'lumotlar asosida bog'lanish grafigi o'rtacha yillik qiymatlari va yozgi davrlar uchun chizildi. Ishda dastlab Chotqol (Xudoydotsov) daryosida o'lchangan o'rtacha yillik suv sarflari bilan Piskom meteorologik stantsiyasida qayd etilgan yozgi davrdagi va yillik o'rtacha

havo haroratlari orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz



Chotqol (Xudoydotsoy d.q.) daryosi o'rtacha yillik suv sarflari (Q) bilan Piskom meteostansiyasida kuzatilgan o'rtacha yilik havo harorati (t_y) orasidagi bog'lanish grafigi



Chotqol(Xudoydotsoy d. q.) daryosi o'rtacha yillik suv sarflari bilan Piskom meteostansiyasida qayd etilgan yozgi havo haroratlari (tyoz) orasidagi bog'lanish grafigi

| Nº | Daryo-kuzatish joyi | Hisob davrlari | Regressiya tenglamasi | $r_0 \pm \sigma_{r_0}$ |
|----|-----------------------|----------------|-----------------------|------------------------|
| 1 | Chotqol - Xudoydotsoy | yillik | $Q=3,9564x+83,233$ | $0,081 \pm 0,19$ |
| | | yozgi | $Q=-4,9594x+208,84$ | $0,15 \pm 0,18$ |
| 2 | Piskom - Mullala | yillik | $Q=-1,6254x+90,729$ | $0,06 \pm 0,19$ |
| | | yozgi | $Q=-6,7903x+193,47$ | $0,41 \pm 0,15$ |
| 3 | Maydontol - quylishi | yillik | $Q=-0,9386x+29,758$ | $0,15 \pm 0,18$ |
| | | yozgi | $Q=-0,7037x+32,833$ | $0,17 \pm 0,18$ |
| 4 | Ugom -Xo'jakent | yillik | $Q=-1,6927x+40,609$ | $0,16 \pm 0,18$ |
| | | yozgi | $Q=-3,055x+77,382$ | $0,44 \pm 0,15$ |
| 5 | Chimgansoy-Chimgan | yillik | $Q=-0,0463x+0,7757$ | $0,29 \pm 0,17$ |
| | | yozgi | $Q=-0,0426x+1,0651$ | $0,40 \pm 0,16$ |
| 6 | Ohangaron-Yertosh | yillik | $Q=-2,7754x+48,404$ | $0,24 \pm 0,18$ |
| | | yozgi | $Q=-4,5853x+101,29$ | $0,59 \pm 0,12$ |
| 7 | Qizilcha-Yertash q. | yillik | $Q=-0,1706x+2,8148$ | $0,27 \pm 0,17$ |
| | | yozgi | $Q=-0,1991x+4,618$ | $0,48 \pm 0,14$ |
| 8 | Nishbosh- Nishbosh q. | yillik | $Q=-0,7113x+9,8739$ | $0,31 \pm 0,17$ |
| | | yozgi | $Q=-0,7467x+15,936$ | $0,49 \pm 0,14$ |
| 9 | Dukantsoy-Dukant | yillik | $Q=-0,6315x+12,064$ | $0,20 \pm 0,18$ |
| | | yozgi | $Q=-0,4536x+13,787$ | $0,21 \pm 0,18$ |
| 10 | Karabay-Samarchik | yillik | $Q=-0,4087x+7,4278$ | $0,23 \pm 0,18$ |
| | | yozgi | $Q=-0,4123x+10,618$ | $0,36 \pm 0,16$ |

Daryolar o`rtacha yillik suv sarflari bilan havo harorati orsidagi bog`lanishlarni ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsientlari (r) va ularning xatoligi (σ_r)

| T/r | Daryo-kuzatish joyi | Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari | | | | | | $r_0 \pm \sigma_{r_0}$ |
|-----|----------------------|--------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|------------------------|
| | | r_{01} | r_{02} | r_{03} | r_{12} | r_{13} | r_{23} | |
| 1 | Chotqol-Hudoydotsoy | 0,719 | 0,408 | -0,235 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,775 \pm 0,076$ |
| 2 | Pikom-Mullala | 0,725 | 0,425 | -0,415 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,797 \pm 0,070$ |
| 3 | Maydontol-quylish | 0,340 | 0,307 | -0,111 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,539 \pm 0,136$ |
| 4 | Ugom-Xo'jakent | 0,697 | 0,580 | -0,378 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,857 \pm 0,051$ |
| 5 | Chimgansoy | 0,337 | 0,496 | -0,418 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,504 \pm 0,143$ |
| 6 | Ohangaron-Yertosh | 0,470 | 0,593 | -0,520 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,721 \pm 0,092$ |
| 7 | Qizilcha-Yertosh | 0,844 | 0,311 | -0,401 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,878 \pm 0,044$ |
| 8 | Nishboshsoy-Nishbosh | 0,621 | 0,244 | -0,454 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,711 \pm 0,095$ |
| 9 | Dukantsoy-Dukant | 0,448 | 0,337 | -0,224 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,887 \pm 0,013$ |
| 10 | Qorabausoy-Samarchuk | 0,723 | 0,328 | -0,335 | 0,168 | -0,193 | -0,593 | $0,758 \pm 0,081$ |

Gidrometeorologik o`zgaruvchilarning orasidagi bog`lanishlar zichligini ifodalaydigan juft va to`liq korrelyatsiya koeffitsientlari

Xulosa

Chirchiq-Ohangaron havzasining tabiiy geografik sharoiti, jumladan

geologic tuzilishi, rel'yefi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplami daryolar oqimi hosil bo'lishi nuqtai-nazaridan o'rganildi. Havzaning tabiiy sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu havzadagi daryolarning to'ynishida muzliklar, doimiy qorliklar, mavsumiy qor qoplami, yomg'ir suvlari va yer osti suvlari ishtirok etadi. Mazkur havza O'zbekistonning boshqa tog' daryolari havzalariga nisbatan gidrologik va meteorologik jihatdan yaxshi o'rganilganligi bilan ajralib turadi;

Chirchiq-Ohangaron havzasasi daryolari yillik oqimining hosil bo'lishida qishki atmosfera yog'inlarining hissalari katta bo'lib, ularning qiymatlari $87 \div 58$ foiz oraliqda o'zgardi. Daryolar yillik oqimining hosil bo'lishida yozgi atmosfera yog'inlarining hissalari esa qishki yog'inlarga nisbatan ancha kam bo'lib, ular $8 \div 40$ foiz oraliqdagi qiymatlarni tashkil etadi. Yozgi havo haroratlarining normallashtirilgan regressiya tenglamalariga qo'shgan ulushlari 2-21 % atrofida o'zgaradi

ADABIYOTLAR

1. A.R. Rasulov, F.H.Xikmatov, D.P. Aytbaev Gidrologiya asoslari. Toshkent "Universitet" 2003, 327 b
2. Rasulov A.R., Xikmatov F.H., Umumiy hidrologiya. –Toshkent: "Universitet", 1995. - 175 b
3. S.Karimov, A.Akbarov, Jonqobilov Gidrologiya, hidrometriya va oqim hajmini rostlash darslik T. O'qituvchi, 2004-230b
4. SHuls V.A. " Reki Sredney Azii" - Leningrad, Gidrometeoizdat. 1965